



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS:3 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS



№	MUNDARIJA	Page
1.	TOVARLAR AUDITI NATIJALARINI AUDITORLIK HISOBOTIDA AKS ETTIRISH TARTIBI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Qurbonov Muhammadali Bahodirovich</i>	4
2.	O'ZBEKISTONDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shirinova Obida Toshpulatovna</i>	8
3.	ORGANIZATION OF AN AUDIT OF THE MOVEMENT OF FIXED ASSETS BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS REQUIREMENTS <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Orzumurodova Farangiz Damirovna</i>	12
4.	QURILISH TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Qo'chqorov Muslimbek Bobojon o'g'li</i>	16
5.	SAVDO KORXONALARIDA TOVAR OPERATSIYALARI AUDITINING TASHKILY TA'MINOTI <i>Ibragimov Mansur Mardonovich, Tursunboyev Sarvar Shuxrat o'g'li</i>	19
6.	SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich</i>	24
7.	TURIZM KORXONALARIDA HISOB SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH <i>Ibragimov Mansur Mardonovich</i>	27
8.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA NAZORATINING INNOVATSION MEXANIZMLARI <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Davronov Miraziz Baxtiyor o'g'li</i>	30
9.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	33
10.	MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINING ZAMONAVIY METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Yusupov Shavkar Xushvaqt o'g'li</i>	37
11.	KORXONALARDA MEHNAT HAQI HISOBI VA AUDITINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH <i>Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, Akmalov Ilg'or Nazirovich</i>	41
12.	XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALARDA XARAJATLAR HISOBI VA KALKULYATSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Po'latov Xudoyberdi Uktamovich, Toshbekov Firdavs Abdurauf o'g'li</i>	44
13.	XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi</i>	47
14.	ASOSIY VOSITALARNI HISOB OBYEKTI SIFATIDA TASNIFLASH VA BAHOLASHNI MHXS ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH <i>Shirinov Uchqun Abduxalilovich, Shakarov Shahzod Sobir o'g'li</i>	52
15.	XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING KREDIT VA QARZ MABLAG'LARIDAN FOYDALANISH HISOBINI VA TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH <i>Mahmudova Go'zal Samadjon qizi</i>	56

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TOVAR-MODDIY ZAHIRALAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH

Shirinov Uchqun Abdusalilovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti

Email: ushirinov@mail.ru

Bahodirova Madinabonu Ixtiyor qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabasi

Email: bahodirovadinabonu4@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tovar-moddiy zaxiralar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalari 2-son BHXS Zaxiralar standarti talablari, zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlil qilinib, tovar-moddiy zaxiralarning takomillashtirilgan integratsiyalashgan tasnifi ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari korxonalarda zaxiralar hisobining shaffofligini oshirish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish sifatini yaxshilash hamda xalqaro standartlar talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Tovar-moddiy zaxiralar, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, zaxiralar hisobi, zaxiralarni baholash, FIFO usuli, sof sotish qiymati, inventarizatsiya, raqamli transformatsiya, ichki nazorat, ta'minot zanjiri, zaxiralar boshqaruvi, moliyaviy hisobot, zaxiralar tasnifi, korporativ boshqaruv.

Abstract: This article analyzes improvements in inventory accounting based on international standards, the requirements of the 2nd International Inventory Accounting Standard, and modern scientific approaches. It also develops an improved integrated inventory classification. The research results serve to increase the transparency of inventory accounting at enterprises, improve internal control systems, enhance the quality of management decision-making, and enhance financial reporting in accordance with international standards.

Keywords: Inventory, international financial reporting standards, inventory accounting, inventory valuation, FIFO method, net realizable value, inventory, digital transformation, internal control, supply chain, inventory management, financial reporting, inventory classification, corporate governance.

Абстрактный: В данной статье анализируются вопросы совершенствования учета запасов на основе международных стандартов, требований 2-го Международного стандарта бухгалтерского учета запасов, современных научных подходов, а также разрабатывается усовершенствованная интегрированная классификация запасов. Результаты исследования служат для повышения прозрачности учета запасов на предприятиях, совершенствования системы внутреннего контроля, повышения качества принятия управленческих решений и формирования финансовой отчетности в соответствии с требованиями международных стандартов.

Ключевые слова: Запасы, международные стандарты финансовой отчетности, учет запасов, оценка запасов, метод FIFO, чистая реализуемая стоимость, запасы, цифровая трансформация, внутренний контроль, цепочка поставок, управление запасами, финансовая отчетность, классификация запасов, корпоративное управление.

Kirish (Введение/Introduction).

Bugungi globallashuv sharoitida korxonalarining moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirish, investorlar va kreditorlar uchun ishonchli axborot taqdim etish hamda xalqaro kapital bozorlariga integratsiyalashuvni ta'minlashda tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Tovar-moddiy zaxiralar korxonaga aylanma aktivlarining asosiy qismini tashkil etib, ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi. Shu sababli TMZlarni tan olish, baholash, qayta baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etish zarurati ortib bormoqda. Xususan, Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi tomonidan ishlab chiqilgan 2-son BHXS Zaxiralar standarti tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi. Mazkur standart TMZlarni tannarx yoki sof sotish qiymatining eng past bo'yicha baholash, zaxiralarning qadrsizlanishini o'z vaqtida aniqlash hamda moliyaviy natijalarga ta'sirini haqqoniy aks ettirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, milliy hisob tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish sharoitida TMZlar hisobini takomillashtirish dolzarb ilmiy va amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentning PQ-282-son qarori asosida moliyaviy hisobot tizimini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish, xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini keng joriy etish hamda jamoatchilik uchun ahamiyatli korxonalarini MHXS asosida hisobot

tuzishga o'tkazish bo'yicha yangi mexanizmlar belgilangan. Mazkur islohotlar natijasida korxonalarda TMZlar hisobini yuritish, baholash va ochiqlash talablarini xalqaro standartlarga moslashtirish zarurati yanada kuchaymoqda. Shuningdek, Jahon banki tomonidan amalga oshirilayotgan AA ROSC baholash dasturi doirasida O'zbekistonning buxgalteriya hisobi va audit tizimining MHXS hamda BHXS standartlariga muvofiqligi baholanayotgani mamlakatda xalqaro standartlarga o'tish jarayonining strategik ahamiyatini ko'rsatadi. Moliyaviy hisobotlarni MHXS asosida taqdim etuvchi korxonalar sonining ortib borishi natijasida TMZlarni hisobga olishda FIFO usuli, sof sotish qiymatini aniqlash, zaxiralar qadrsizlanishini hisoblash va inventarizatsiya natijalarini aks ettirish kabi masalalarning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Xalqaro standartlar asosida TMZlar hisobini takomillashtirish nafaqat moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishga, balki korxonalarining logistika, ta'minot zanjiri va ishlab chiqarish xarajatlarini samarali boshqarishga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda IFRSni joriy etish jarayoni yirik banklar, sanoat korxonalari va aksiyadorlik jamiyatlarida faol amalga oshirilmoqda. Masalan, [Ipoteka-bank rasmiy sayti](#) ma'lumotlariga ko'ra, bank tomonidan 2005-yildan boshlab moliyaviy hisobotlar IFRS asosida e'lon qilib kelinmoqda, bu esa xalqaro standartlarning amaliyotga keng joriy etilayotganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, xalqaro standartlar asosida hisobot yuritish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshiradi, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlaydi hamda moliyaviy axborotlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi. Shu sababli TMZlar hisobini 2-son BHXS talablari asosida

takomillashtirish, ularning harakati va qoldiqlarini real qiymatda aks ettirish, hisob siyosatida zamonaviy baholash usullarini qo'llash hamda raqamli hisob tizimlari bilan integratsiyalash ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Tovar-moddiy zaxiralar (TMZ) hisobi korxonaning moliyaviy holatini haqqoniy aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu masala bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar TMZlarni baholash, tan olish va hisobotlarda aks ettirishning nazariy hamda amaliy jihatlarini yoritishga qaratilgan. Xususan, Hendriksen va Van Breda zaxiralarni korxonaga aktivlarining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etib, ularni baholashda ehtiyotkorlik tamoyiliga qat'iy amal qilish zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, zaxiralarning noto'g'ri baholanishi korxonaga foydasi va moliyaviy natijalarining buzilishiga olib keladi [1].

TMZlarni baholash usullarining moliyaviy natijalarga ta'siri Kieso, Weygandt va Warfield tomonidan batafsil o'rganilgan. Olimlar FIFO va o'rtacha tortilgan qiymat usullarining turli iqtisodiy sharoitlarda korxonaga moliyaviy ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab berganlar. Ularning fikricha, inflyatsiya sharoitida FIFO usuli zaxiralarni joriy bozor narxlariga yaqinroq qiymatda aks ettirish imkonini beradi [2]. Shuningdek, Schroeder, Clark va Cathey moliyaviy hisobot foydalanuvchilari uchun TMZlar to'g'risidagi ma'lumotlarning shaffofligi va ishonchligi muhim ekanligini ta'kidlab, 2-SON BHXS "Inventories" standartining mazkur jarayondagi rolini yoritganlar [3].

TMZlarni xalqaro standartlar asosida hisobga olish masalalari Epstein va Jermakowicz tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Ularning fikricha, zaxiralarni tannarx va sof sotish qiymatining eng past bo'yicha baholash tamoyili korxonaga aktivlarini real qiymatda aks ettirishga xizmat qiladi. Mualliflar zaxiralarning qadrsizlanishini o'z vaqtida tan olish moliyaviy hisobotlarning haqqoniylikni oshiruvchi muhim omil ekanligini qayd etadilar [4].

Boshqaruv hisobi nuqtai nazaridan Paliy TMZlarni korxonaga xarajatlarni boshqarishning asosiy obyekti sifatida ko'rib chiqadi. Olimning fikricha, zaxiralar harakati ustidan samarali nazorat o'rnatish orqali mahsulot tannarxini pasaytirish va korxonaga rentabelligini oshirish mumkin [5]. Shu bilan birga, Sokolov zaxiralar hisobi va inventarizatsiyasi korxonaning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. U muntazam inventarizatsiya va ichki nazorat tizimini takomillashtirish zaxiralarning saqlanishini ta'minlashini asoslab bergan [6].

O'zbekistonlik olimlardan Karimov mamlakatda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish jarayonida TMZlarni baholash va hujjatlashtirish tizimini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, xalqaro standartlarni joriy etish moliyaviy hisobotlarning sifati va investorlar uchun foydaliligini oshiradi [7]. To'la xodjayeva esa zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali TMZlar hisobining samaradorligini oshirish mumkinligini qayd etadi. Muallif ERP tizimlari va raqamli platformalar zaxiralar harakatini real vaqt rejimida nazorat qilish imkonini berishini ko'rsatib bergan [8].

Wild, Shaw va Chiappetta TMZlar korxonaning likvidligi va moliyaviy barqarorligini baholashda muhim axborot manbai ekanligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, zaxiralar aylanuvchanligi ko'rsatkichlari

korxonaga resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda muhim analitik vosita hisoblanadi [9].

Yuqoridagi ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, tadqiqotchilar TMZlar hisobini takomillashtirishning turli jihatlariga e'tibor qaratganlar. Jumladan, zaxiralarni baholash va moliyaviy natijalarga ta'siri masalalari [1; 2], moliyaviy hisobotlarda axborotlarning ishonchligi va xalqaro standartlar talablari [3; 4], boshqaruv hisobi hamda ichki nazorat tizimining ahamiyati [5; 6], shuningdek, xalqaro standartlarni joriy etish va raqamlashtirish masalalari [7; 8] keng tadqiq qilingan. Bundan tashqari, TMZlarning korxonaga moliyaviy barqarorligi va likvidligini baholashdagi o'rni ham asoslab berilgan [9].

Shunday qilib, adabiyotlar sharhi natijalari TMZlar hisobini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari sifatida 2-SON BHXS talablarini amaliyotga to'liq joriy etish, zaxiralarni baholash usullarini takomillashtirish, sof sotish qiymatini aniqlash mexanizmlarini rivojlantirish, inventarizatsiya va ichki nazorat tizimini kuchaytirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan hisob tizimlarini keng qo'llash zarurligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Ushbu tadqiqot "Xalqaro standartlar asosida TMZlar (tovar-moddiy zaxiralar) hisobini takomillashtirish" mavzusini o'rganishga qaratilgan bo'lib, uning metodologik asosini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IAS 2 "Inventories", shuningdek, MHXS (IFRS) konseptual asoslari hamda milliy buxgalteriya hisobi me'yoriy-huquqiy hujjatlarini tashkil etadi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks foydalanildi. Tahlil va sintez usuli orqali tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning mavjud nazariy va amaliy yondashuvlari o'rganilib, ularning tarkibiy elementlari ajratildi va umumlashtirildi. Induksiya va deduksiya usullari yordamida xalqaro amaliyotdagi umumiy tamoyillar asosida milliy hisob tizimi uchun amaliy xulosalar ishlab chiqildi.


Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli asosida IAS 2 talablari bilan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi amaliyotidagi TMZlarni baholash, tan olish va hisobdan chiqarish tartiblari solishtirildi. Bu yondashuv mavjud farqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini asoslash imkonini berdi.

Tadqiqotda statistik va iqtisodiy tahlil usullari qo'llanilib, TMZlar tarkibi, ularning aylanish tezligi, zaxiralar darajasi hamda korxonaga moliyaviy natijalarga ta'siri baholandi. Zaxiralarni aylanish koeffitsienti, o'rtacha saqlash muddati va ombor xarajatlari kabi ko'rsatkichlar asosida tahlil amalga oshirildi.


Bundan tashqari, sistemali yondashuv orqali TMZlar hisobi yagona boshqaruv tizimi sifatida ko'rib chiqildi. Bu tizimda xarid qilish, saqlash, ishlab chiqarishga berish va hisobdan chiqarish jarayonlari o'zaro bog'liq elementlar sifatida tahlil qilindi.

Tadqiqotda baholash va modellashtirish usullari ham qo'llanilib, FIFO, o'rtacha tortilgan qiymat va aniq identifikatsiya usullarining moliyaviy natijalarga ta'siri solishtirildi hamda eng maqbul hisob siyosatini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, me'yoriy-huquqiy tahlil usuli asosida IAS 2 standarti, IFRS konseptual asoslari hamda milliy buxgalteriya hisobi qonunchiligi o'rganildi va ular o'rtasidagi uyg'unlik darajasi baholandi.



1-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati¹



2-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarning xalqaro standartlar va zamonaviy boshqaruv talablari asosidagi tasnifi

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar xalqaro standartlar asosida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Tovar-moddiy zaxiralar iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim iqtisodiy resurslardan biri hisoblanadi. Ular ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlash, iste'molchilar talabini o'z vaqtida qondirish va korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Tovar-moddiy zaxiralar xomashyo, materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar ko'rinishida ishlab chiqarish hamda muomala jarayonlarining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va savdo tarmoqlarida zaxiralardan samarali foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot tannarxini optimallashtirish va korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, tovar-moddiy zaxiralar korxonaga aylanma mablag'larining asosiy qismini tashkil etganligi sababli, ularni oqilona boshqarish va to'g'ri hisobga olish iqtisodiyotda resurslardan samarali foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda investitsion jozibadorlikni oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Quyidagi rasmda tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati aks ettirilgan. Unda TMZlarning tarkibiy elementlari (xomashyo va materiallar, yordamchi materiallar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar va tovarlar), ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlashdagi roli hamda korxonalarining moliyaviy barqarorligiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, zaxiralarning sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashdagi ahamiyati ko'rsatilgan.

1-rasmda TMZlarni samarali boshqarish natijasida korxonalarda xarajatlarining kamayishi, talabni o'z vaqtida qondirish, raqobatbardoshlikning oshishi, yalpi ichki mahsulot hajmining ko'payishi hamda investitsion jozibadorlikning ortishi kabi ijobiy iqtisodiy natijalar yuzaga kelishi tasvirlangan. Shu bois tovar-moddiy zaxiralarni xalqaro standartlar asosida to'g'ri hisobga olish va samarali boshqarish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish hamda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. [10]

2-rasmda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan 2-son BHXS Zaxiralar talablari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida ishlab chiqilgan tovar-moddiy zaxiralarning takomillashtirilgan tasnifi aks ettirilgan. An'anaviy tasniflardan farqli ravishda, ushbu tasnif zaxiralarni nafaqat iqtisodiy mazmuni va funksional vazifasi bo'yicha, balki saqlash joyi, egalik huquqi, baholash usuli, xavf va noaniqlik darajasi hamda raqamli integratsiya darajasi kabi zamonaviy mezonlar asosida ham guruhlash imkonini beradi. Bu esa zaxiralar to'g'risidagi axborotlarning batafsilligi va analitik qiymatini oshirishga xizmat qiladi.

4-son BHMS va 2-son BHXS standartlarining qiyosiy tahlili¹

№	Taqqoslash mezonlari	4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar"	2-son BHXS / 2-son BHXS "Inventories"	Ilmiy-amaliy farq
1	Standartning huquqiy maqomi	Milliy buxgalteriya hisobi standarti, O'zbekiston normativ-huquqiy tizimiga moslashtirilgan	Xalqaro moliyaviy hisobot standarti, IASB tomonidan ishlab chiqilgan	BHMS ko'proq milliy hisob yuritish va soliq-amaliyotga yaqin; 2-son BHXS investorlar uchun taqqoslanuvchan moliyaviy axborotga yo'naltirilgan
2	Asosiy maqsad	TMZlarni hisobga olish, baholash, chiqarish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini belgilaydi	Inventarlarning tannarxini aktiv sifatida tan olish va daromad tan olingunga qadar balansda saqlash tartibini belgilaydi	2-son BHXS konseptual jihatdan "daromad-xarajat mosligi" va aktiv qiymatini buzib ko'rsatmaslikka kuchli urg'u beradi
3	Baholash mezonlari	TMZlar tannarx va realizatsiya qilishning sof qiymati asosida baholanadi	Inventarlar tannarx yoki sof realizatsiya qiymatidan pastrog'i bo'yicha baholanadi	Mazmunan yaqin, ammo 2-son BHXSda ehtiyotkorlik va qadrsizlanishni tan olish mexanizmi aniqroq xalqaro talqin qilinadi
4	Sof realizatsiya qiymati	Realizatsiya qilishning sof qiymati tushunchasi qo'llaniladi	NRV — oddiy faoliyatdagi taxminiy sotish narxidan yakunlash va sotish xarajatlari chegirilgan qiymat	2-son BHXS NRVni professional baholash va audit dalillari bilan bog'laydi; ilmiy ishlar NRV baholashida menejer va auditor o'rtasida baholash ziddiyatlari yuzaga kelishini ko'rsatadi

¹ Muallif ishlanmasi

5	Tannarx tarkibi	Xarid qilish, qayta ishlash va TMZni hozirgi joyi va holatiga keltirish xarajatlarini kiritiladi	Purchase costs, conversion costs va boshqa bevosita xarajatlar kiritiladi	2-son BHXS ishlab chiqarish ustama xarajatlarini normal quvvat asosida taqsimlashga ko'proq urg'u beradi
6	Tannarx formulalari	Amaliyotda FIFO, o'rtacha tortilgan qiymat kabi usullar qo'llanadi	FIFO va weighted average usullariga ruxsat beradi; LIFO taqiqlangan	Xalqaro amaliyotda LIFO taqiqlanishi moliyaviy hisobotlarni taqqoslash imkonini oshiradi; IFRS va US GAAP farqlarida aynan inventar hisobi muhim farq sifatida ko'rsatiladi
7	Qadrsizlanish	TMZ qiymati sof realizatsiya qiymatigacha kamaytiriladi	Inventar qiymati NRVGacha kamaytiriladi va zarur hollarda oldingi kamaytirish qayta tiklanadi	2-son BHXSda write-down va reversal mexanizmi xalqaro investorlarga foyda sifatini baholash imkonini beradi
8	Xarajat sifatida tan olish	TMZ sotilganda yoki ishlatilganda xarajat sifatida tan olinadi	Inventar sotilganda tegishli balans qiymati xarajat sifatida tan olinadi	Mazmunan o'xshash, lekin 2-son BHXS daromad tan olinishi bilan bog'liq moslik tamoyilini aniqroq ifodalaydi
9	Moliyaviy hisobotdagi ochib berish	TMZlarning baholash usuli, balans qiymati va boshqa zarur axborotlar yoritiladi	Hisob siyosati, tannarx formulalari, balans qiymati, xarajatga o'tkazilgan summa va write-down ochib beriladi	2-son BHXS talablari kapital bozori va tashqi foydalanuvchilarning uchun kengroq shaffoflik beradi

Taklif etilgan tasnif korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish, zaxiralar harakatini samarali boshqaruv hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotlarni shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, tasnifning raqamli integratsiya va xavf darajasi bo'yicha guruhlari korxonalarda raqamli transformatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlash, zaxiralar bilan bog'liq risklarni baholash va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada ushbu tasnif tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish, tahlil qilish va boshqarishning zamonaviy, kompleks hamda xalqaro talablarga mos metodologik asosini yaratadi.

O'zbekistonda tovar-moddiy zaxiralar hisobi 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar" standarti bilan tartibga solinsa, xalqaro amaliyotda ushbu munosabatlar 2-son BHXS Zaxiralar standarti asosida yuritiladi. So'nggi yillarda Scopus bazasida indekslanuvchi ilmiy tadqiqotlarda zaxiralarni baholash, sof realizatsiya qiymatini aniqlash, tannarxni shakllantirish va moliyaviy hisobotlarda ochib berish masalalari alohida e'tibor markazida bo'lib kelmog'ida. Quyidagi jadvalda 4-son BHMS va 2-son BHXSning asosiy farqli jihatlari xalqaro standartlar talablari hamda zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida tizimli ravishda taqqoslangan (1-jadval).

Tadqiqot natijasida 4-son BHMS "Tovar-moddiy zaxiralar" hamda 2-son BHXS "Inventories" standartlari talablarini uyg'unlashtirish asosida tovar-moddiy zaxiralarning haqiqiy qiymatini aniqlash, ularning qadrsizlanish xavfini o'z vaqtida baholash va moliyaviy hisobotlarda ishonchli aks ettirilishini ta'minlashga qaratilgan "TMZlarning sof

realizatsiya qiymatini monitoring qilish reyestri" ishlab chiqildi. Mazkur reyestrning asosiy afzalligi shundaki, unda har bir turdagi zaxiraning nomi, balans qiymati, bozor qiymati, sotish bilan bog'liq xarajatlar, sof realizatsiya qiymati, qadrsizlanish summasi hamda mas'ul shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar tizimli ravishda aks ettiriladi. Natijada korxonalar rahbariyati va buxgalteriya xizmati tomonidan zaxiralarning real holati doimiy nazorat qilinib, iqtisodiy foyda keltirmaydigan yoki bozorda talab pasaygan zaxiralarni tekzor aniqlash imkoniyati yaratiladi. Taklif etilgan reyestr amaldagi hisob amaliyotida uchraydigan, ya'ni tovar-moddiy zaxiralarning balans qiymati ularning sof realizatsiya qiymatidan yuqori bo'lib qolishi natijasida moliyaviy hisobotlarda aktivlar qiymatining sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilishi muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Reyestr yordamida zaxiralarning balans qiymati va sof realizatsiya qiymati muntazam ravishda taqqoslanadi hamda ular o'rtasidagi salbiy tafovutlar aniqlanganda qadrsizlanish summasi o'z vaqtida xarajatlarga olib boriladi. Bu esa korxonalar aktivlari, moliyaviy natijalari va xususiy kapitali to'g'risidagi ma'lumotlarning haqqoniyligini oshiradi. Shuningdek, reyestr ichki nazorat va auditorlik tekshiruvlari uchun muhim axborot manbai bo'lib xizmat qilib, TMZlar harakati ustidan monitoringni kuchaytiradi, zaxiralar bilan bog'liq tavakkalchiliklarni kamaytiradi hamda xalqaro standartlar talablari asosida moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va investitsion jozibadorligini oshirishga imkon beradi. Shu jihatdan, mazkur reyestrni amaliyotga joriy etish tovar-moddiy zaxiralarni baholash va hisobga olish metodologiyasini takomillashtirishga qaratilgan muhim ilmiy-amaliy yangilik hisoblanadi.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion).

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tovar-moddiy zaxiralar korxonalarining ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish faoliyatini uzluksiz tashkil etish, mahsulot tannarxini shakllantirish hamda moliyaviy natijalarni aniqlashda muhim iqtisodiy resurs hisoblanadi. Amaldagi xalqaro standartlar, xususan, 2-son BHXS standarti zaxiralarni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirishning umumiy tamoyillarini belgilab bergan bo'lsa-da, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida zaxiralarning raqamli transformatsiya, ta'minot zanjiri integratsiyasi, risklarni boshqarish va barqaror rivojlanish bilan bog'liq jihatlarni hisobga oluvchi keng qamrovli tasniflash zarurati mavjud.

Taklif etilgan yangi tasnifning asosiy afzalligi shundaki, u zaxiralarni faqat iqtisodiy mazmuni bo'yicha emas, balki funksional vazifasi, saqlash joyi, egalik huquqi, baholash usuli, xavf va noaniqlik darajasi hamda raqamli integratsiya darajasi bo'yicha ham guruhlash imkonini beradi. Mazkur yondashuv korxonalarda zaxiralar ustidan nazoratni kuchaytirish, inventarizatsiya jarayonlarini takomillashtirish, logistika xarajatlarini optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun zarur bo'lgan analitik axborotlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zaxiralarni xavf darajasi va raqamli integratsiya mezonlari bo'yicha tasniflash korxonalariga ta'minot zanjiridagi uzilishlar, narxlar o'zgarishi, mahsulot eskirishi va boshqa iqtisodiy xatarlarni oldindan baholash imkonini beradi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi nafaqat moliyaviy hisobotlarni tayyorlash vositasi, balki strategik boshqaruvning muhim elementi sifatida ham qaralishi lozim. Taklif etilgan tasnif korxonalarda ERP, SAP, Oracle, 1C va boshqa raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish jarayonida zaxiralar to'g'risidagi ma'lumotlarni tizimlashtirish va avtomatlashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada zaxiralar harakati ustidan real vaqt rejimida nazorat o'rnatish, ortiqcha yoki sekin aylanuvchi zaxiralarni aniqlash, ombor xarajatlarini kamaytirish va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish mumkin bo'ladi.

Umuman olganda, ishlab chiqilgan takomillashtirilgan tasnif tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish, tahlil qilish va boshqarishning zamonaviy metodologik asosini yaratadi. Mazkur tasnifni amaliyotga joriy etish korxonalarda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirish, xalqaro standartlar talablariga muvofiqlikni ta'minlash, ichki nazorat tizimini takomillashtirish hamda boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, taklif etilgan tasnif zaxiralarni hisobini raqamlashtirish, ta'minot zanjiri samaradorligini oshirish va korxonalarining investitsion jozibadorligini kuchaytirish orqali ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga muhim hissa qo'shadi. Natijada mazkur ilmiy yondashuv tovar-moddiy zaxiralar hisobi metodologiyasini yanada takomillashtirishga hamda xalqaro amaliyot talablariga mos keluvchi yangi hisob va boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. Hendriksen E.S., Van Breda M.F. Accounting Theory. – Boston: Irwin McGraw-Hill, 1992.
2. Kieso D.E., Weygandt J.J., Warfield T.D. Intermediate Accounting. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2023.
3. Schroeder R.G., Clark M.W., Cathey J.M. Financial Accounting Theory and Analysis. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2022.
4. Epstein B.J., Jermakowicz E.K. Interpretation and Application of IFRS Accounting Standards. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2024.
5. Paliy V.F. Upravlencheskiy учет. – Moskva: INFRA-M, 2019.
6. Sokolov Ya.V. Buxgalterskiy учет: ot istokov do nashix dney. – Moskva: Audit, 2018.
7. Karimov A.A. Moliyaviy hisob. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2021.
8. To'laxodjayeva M.M. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
9. Wild J.J., Shaw K.W., Chiappetta B. Financial Accounting: Information for Decisions. – New York: McGraw-Hill Education, 2022.
10. Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li. (2026). Bank xizmatlarini sug'urtalashning ilmiy-nazariy ASOSLARI. Insurance market of Uzbekistan, 3(2), 30–33. https://doi.org/10.55439/INS/vol3_iss2/378